

## 19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

### BOLADA JINSIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIYA USULLARI

Abdusamatov Xasanboy Usmonjon o'g'li,\

"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi, psixologiya fanlari doktori, dotsent.

### СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ СЕКСУАЛЬНОГО ВОСПИТАНИЯ У РЕБЕНКА

Абдусаматов Хасанбой Усманжан угли,

Ученый секретарь НИИ «Семья и женщины», доктор психологических наук, доцент.

### SOCIO-PSYCHOLOGICAL METHODS OF FORMATION OF SEXUAL EDUCATION IN A CHILD

Abdusamatov Hasanboy,

Scientific Secretary of the Research Institute «Family and Women», Doctor of Psychological Sciences, associate Professor

*Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarni tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ko'rsatilgan. Tarbiyanig uzbek bir qismi bo'lgan jinsiy tarbiya haqida xorij olimlarning tadqiqotlari keltirilgan. Jinsiy tarbiya berish uchun ota-onanidan bilish muhim bo'lgan tavsiyalar keltirilgan. Jinsiy tarbiyaning bosqichlari alohida yoritilgan. Farzanda "o'g'il bola", "qiz bola"ga hos xususiyatlarni rivojlanadirishga qaratilgan psixologik tavsiyalar mavjud.*

*Kalit so'zlar. Tarbiya, jinsiy tarbiya, farzand, ijtimoiy-psixologik muammo.*

*Аннотация. В данной статье показаны социально-психологические особенности воспитания детей. Часть студентов исследовали зарубежные ученые из области образования. Даны рекомендации, которые важно знать родителям для полового воспитания. Этапы полового воспитания рассматриваются отдельно. У ребенка есть психологические рекомендации, направленные на развитие качеств «мальчика», «девочки».*

*Ключевые слова. Воспитание, половое воспитание, ребенок, социально-психологическая проблема.*

*This article shows the socio-psychological features of child rearing. A study of foreign scientists on sex education, which is an integral part of education, is presented. Recommendations are given that it is important for parents to know for sex education. The stages of sex education are considered separately. The child has psychological recommendations aimed at developing the qualities of a «boy», «girl».*

*Keywords. education, sex education, child, socio-psychological problem.*

*Kirish. Jinsiy tarbiya - bu bolalar, o'smirlar va yoshlarni gender masalalariga to'g'ri munosabatda bo'lishga, tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi. Jinsiy tarbiyaning vazifasi yosh avlodning barkamol rivojlanishiga ko'maklashish, jinsiy xulq-atvorda axloqiy me'yorlarga rioya qilish, nikoh va oilani mustahkamlashga yordam berishdir. Jinsiy tarbiya bolalar balog'atga yetganida amalga oshirilishi kerak degan fikr noto'g'ri, chunki ba'zi masalalarni bolalikdan hal qilish kerak bo'ladi. Bola dunyoga mavhum shaxs sifatida yemas, balki kelajakda erkak yoki ayol sifatida shakllanadi. Oilaviy pedagogikaning asosiy maqsadi o'g'il bolani erkak va qizni iloji boricha nozik ayol bo'lishga o'rgatishdir. Shifokorlar va psixologlarning fikricha, jins tuyg'usining rivojlanishi yoki yo'qolishi shaxsning xususiyatida chuqur o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Natijada shaxs o'zining «men» ini sezilarli darajada yo'qotadi, shaxslaro munosabatlarining tizimi buziladi. Jinsiy o'zini-o'zi anglash sohasidagi me'yordan kichik og'ish ham oilaviy hayotga halokatlari ta'sir ko'rsatadi.*

*Jinsiy tarbiya oilada, maktabgacha ta'lim muassasasida, maktabda va boshqa ta'lim tashkilotlarda olib boriladigan tarbiyaviy dasrlarning ajralmas qismi bo'lishi kerak. Bolalarning jinsi, yoshi va psixologik tayyorgarlik darajasiga qarab jinsiy tarbiyani berish muhim. Jinsiy tarbiya samaradorligi uchun ota-*

onalar, tibbiyot mutaxassislari va o‘qituvchilar hamkorligi bilan yondashuvdir. Qiyin hayotiy vaziyatlar o‘smirlarning jins madaniyat va tarbiya masalalariga tayyor emasligi olib keladi. Jinsiy bilim va ilmdan behabar bo‘lgan o‘smir tanasidagi fiziologik o‘zgarishlarni anglashga qiyaladi va uyaladi. O‘smir ushbu xodisani ota-onasi va o‘qituvchilardan olishga tortinidi va ko‘pincha tasodifly manbalarga murojaat qiladi [2]. Oxir-oqibat ular buzilgan ma’lumotlarga ega bo‘ladi. Jinsiy tarbiya axloqiy tarbiyaning bir qismi bo‘lishi kerak, shaxs o‘zini o‘zi anglash fazilatini shakllanishiga yordam beradi. Bugungi kunda kino, televideniyalarda jinsiy masalalarining ko‘p ko‘rsatiliishi, yosh avlodni jinsiy tarbiyalashni muhim ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Kanadada o‘smirlar homiladorligining oldini olish dasturi qabul qilingan. Ushbu dastur jinsiy ta’limni mayjud reproduktiv sog‘liqni saqlashning keng qamrovli xizmatlari hamda yosh ota-onalarga ko‘maklashishni qo‘llab-quvvatlash orqali o‘zida mujassamlashtiradi. Dastur quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

yoshlarga himoyalananmagan jinsiy aloqa xavfi, homiladorlik va jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalarning oldini olish usullarini o‘rgatadigan keng qamrovli jinsiy ta’lim;

yoshlar uchun bepul yoki arzon tug‘ilishni nazorat qilishga yordam beradigan reproduktiv salomatlik xizmatlari;

yosh ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash, masalan, tarbiya kurslari, moliyaviy yordam va bolalarga g‘amxo‘rlik qilish.

O‘smirlar homiladorligining oldini olish dasturida belgilangan chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida erta tug‘ruqlar sonining 50 foizga kamaytirishga erishilgan.

Yaponiyaning o‘smirlar homiladorligini kamaytirishga bo‘lgan yondashuvi jinsiy ta’lim va kechiktirilgan nikohni o‘z ichiga oladi. Mamlakat reproduktiv salomatlik va kontrasepsiya xizmatlarini taqdim etadi.

Mamlakatda erta tug‘ruqlar soni juda kam qayd etiladi, bunga quyidagi yo‘nalishlardagi faoliyatning amalga oshirilishi natijasida erishilgan:

1. Jinsiy tarbiya. Mamlakatda jinsiy ta’lim 10 yoshdan boshlab majburiy bo‘lib, u anatomiya, tug‘ilish, kontrasepsiya va jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar kabi mavzularni qamrab oladi. Jinsiy ta’lim haqiqatga asoslangan va xolis tarzda o‘qitiladi. Mashg‘ulot yoshlarga reproduktiv salomatligi haqida ongli qarorlar qabul qilishda yordam berishga mo‘ljallangan.

2. Kechiktirilgan nikoh. Yaponiyada turmush qurishning o‘rtacha yoshi ayollar uchun – 30 yosh, erkaklar uchun – 31 yosh. Demak, yoshlarda oila qurishdan oldin o‘qishni tugatish va o‘z karerasini yo‘lga qo‘yish uchun ko‘proq vaqt bor.

Buyuk Britaniyada yoshlarga jinsiy ta’lim berish, kontraseptiv vositalardan foydalanish va erta ota-onasi bo‘lish xavfi ostida bo‘lganlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan o‘smirlar homiladorligining oldini olish strategiyasi ishlab chiqilgan.

Strategiya 3 ta asosiy yo‘nalishdan tashkil topgan:

1. Jinsiy ta’lim. Strategiya mamlakatdagi barcha yoshlar kontrasepsiya, jinsiy munosabatlari va reproduktiv salomatlik mavzularini qamrab oluvchi keng qamrovli ta’limni ta’minlaydi. Bu kabi ta’lim maktablar, yoshlar klublari hamda jamoat markazlarida olib boriladi.

2. Kontraseptiv vositalardan foydalanish strategiyasi voyaga yetmaganlarning homiladorlikdan saqlovchi vositalardan foydalanishni osonlashtiradi. Bu, asosan, ta’lim muassasasi hamshiralari, oilani rejalashtirish klinikalari hamda dorixonalar tomonidan taqdim etiladi.

3. Erta ota-onasi bo‘lish xavfi ostida bo‘lganlarni qo‘llab-quvvatlash. Strategiya erta ota-onasi bo‘lish xavfi yuqori bo‘lganlar, ya’ni qashshoqlikda kun kechirayotganlar yoki zo‘ravonlikka duchor bo‘lish ehtimoli mayjud yoshlarni himoya qiladi. Ushbu yordam maslahat, moliyaviy va uy-joy yordamini o‘z ichiga oladi [1].

Jinsiy tarbiyada bolalarga anatomik, fiziologik, ekologik, gigiyenik va boshqa ma’lumotlar bilan tanishtirishdan iborat.

Jinsiy tarbiyaning asosiy maqsadi, yosh avlodni barkamol rivojlanishiga ko‘maklashish va oilalarini mustahkamlashdan iborat. Jinsiy tarbiyaning ikki kismga ajraladi [11]:

Anatomik va fiziologik qism

Ijtimoiy-psixologik qism.

Anatomik va fiziologik qismiga balog‘at yoshi, shaxsiy gigiyena, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan

kasalliklar kiradi.

Ijtimoiy-psixologik qismga «erkaklik» va «ayollik» tushunchasi, shaxslararo munosabatlar psixologiyasi, muloqot madaniyati, o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasidagi munosabatlarning axloqiy asoslari, sevgi shaxsning eng oliv tuyg‘usi sifatida, nikoh va oila va nikohga tayyorlik tushunchalarni o‘z ichiga oladi.

Jinsiy rivojlanish davrida quyidagi muammolar yuzaga keladi: sevib qolish, onanizm, erta jinsiy aloqalar, erta homiladorlik va jinsiy zo‘ravonlik [8].

Sevib qolish. 7 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan davrni bolalik romantizmi ning boshlanishi deb atash mumkin. Bola butun kunlarni o‘sha ob‘yekti haqida o‘ylashi, faqat uni ko‘rish uchun maktabga borishi va uchrashganda aytadigan so‘zlarini oyna oldida mashq qilishi mumkin. O‘zi anglamagan xolda dastlabki uchrashuvlar vaqt boshsanadi. 12 yoshdan oshgan bolalardagi muhabbat o‘pish va quchoqlash bilan chambarchas bog‘lanadi. Bu davrda o‘smirlar yaqinlashib kelayotgan «katta sevgi» ga yaqinlashish hissi bilan yashaydilar.

Pubertal davr – hayotning eng muhim, ma’suliyatli va qiyin vaqt hisoblanadi. Bu davrda o‘g‘il bolalar va qizlar ham kattalar dunyosiga kirib kelmagan, ammo bolalik dunyosini tark etgan bo‘ladi.

O‘smirlarda sevgi va jinsiy hoxishlarni bog‘liqligi, farqlari va ahamiyatlarni tushuntirish kerak. Ota-onalar bolalardagi sevgi tuyg‘usi va uning alomatlarini to‘g‘ri tushunsa, unga o‘z vaqtida psixoprofilaktik ishlarni amalga oshirmasa, stress, umidsizlik, baxtsizlik yuzaga keladi. Bolada nevroz, depressiya, o‘z joniga qasd qilish xodisalarini oldini olish uchun doim kuzatib borish kerak bo‘ladi [7].

Onanizm. Jahondagi statistikaga ko‘ra, o‘g‘il bolalarning 40-70 % i, qizlarning 30-60 % i onanizm bilan shug‘ullanar ekan. Bu davrda bola bilan qo‘pol munosabatda bo‘lish tavsiya etilmaydi. Ota-onalar bolalarni bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga harakat qilish kerak. Ularni ko‘proq jismoniy ishlarga jalb qilish kerak bo‘ladi. Ushbu hodisadan qochishning eng yaxshi usuli bu sport, o‘g‘il bolalar uchun (gimnastika qizlar uchun), chunki jismoniy faoliyot ortiqcha gormonlarning «yonishi» va sog‘lom charchoqni yuzaga kelishiga yordam beradi. Ushbu davrda o‘smirlar rejimini shakllantirish muhim [8].

Erta jinsiy munosabatlar. Agar ushbu davrda jinsiy hayotni boshlagan bo‘lsa, ota-onalar nima qilishlari kerak? Bu davrda bolalar bilan kattalar kabi suhbatlashish kerak. Jinsiy faoliyatning oqibatlari haqida suhbatlashish kerak: ginekologik, yuqumli, tanosil kasalliklari, tufayli gormonal kasalliklar, erta homiladorlik xavfi haqida to‘liq ma’lumot berish kerak. Qiz bolani erta xomiladorligi va uning shergini javobgarlikka tortish muammosini tushuntirish kerak [6].

Erta homiladorlik. Erta xomiladorlik o‘zbek jamiyati, uning qadriyatlarini va diniy ta’limoti uchun yod bo‘lgan xodisa hisoblanadi. Afsuski, globalashuvning kuchayishi, migratsiyani ortishi, yoshlar ustidan ijtimoiy nazoratni kamayishi natijasida o‘smir qizlar o‘rtasida erta homiladorlik paydo bo‘lmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, erta homiladorlik davri aniqlansa, dastlab abort qilish usulidan foydalanmaslikni tavsiya qiladi. Chunki u keyinchalik ushbu qizda boshqa farzand ko‘ra olmaslik holatiga olib kelishi mumkin. Agar qo‘ni-qo‘shnilarda ushbu holat yuzaga kelsa, uni g‘iybat qilishdan tayilish kerak. Uni o‘rniga o‘z farzandingizni, nabirangizni asrash yo‘llarini o‘ylash kerak.

Jinsiy zo‘ravonlik. Bolalarga nisbatan qo‘llaniladigan usul. Bugun bizni jamiyatimizda ham ushbu xodisaning ko‘rinishlari paydo bo‘lgan. O‘z jinsiy hissini qoniqtirish uchun bolalardan foydalaniladi. Bolada iroda erkinligi, salbiy oqibatlarni oldindan ko‘ra olmaslik holati bo‘lganligi uchun ulardan jinsiy zo‘ravonlik sifatida foydalaniladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jinsiy zo‘ravonlik qurbanlari har qanday yoshdagagi bolalar bo‘lishi mumkin: taxminan 35% 6 yoshdan 11 yoshgacha va 40% 12 yoshdan 17 yoshgacha o‘smirlar tashkil qiladi [5].

Yuqoridagi holatlarni oldini olish, bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, uning o‘z dini, qadriyatlarini va ma’rifati bilan uyg‘unlikda tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Shu o‘rinda ularni to‘g‘ri tarbiyalash, jinsiy yetilish davrini anglash, unga to‘g‘ri tarbiya berish uchun jinsiy tarbiyaning bosqichlarini muhim.

Bolalar va o‘smirlari jinsiy tarbiyalashda oilani roli muhim hisoblanadi. Jinsiy tarbiya jarayonida shartli ravishda bir necha bosqichlarni ajratish mumkin: 1 yoshdan 5-7 yoshgacha, 2 yoshdan 7-13 yoshgacha, 3 yoshdan 12-15 yoshgacha, 4 yoshdan 15-17 yoshgacha. Ota-onalar, birinchi navbatda, bolaning rivojlanishining fiziologik xususiyatlarini, ya’ni reproduktiv tizimda qaysi ko‘rinishlar me’yorda, qaysi birini me’yordan tashqarida deb tahlil qila oladigan bilimga ega bo‘lishi kerak. Shuningdek, bolaning jinsiy (jinsiy) rivojlanishida, hayotning birinchi yilidagi o‘g‘il bolalarda siyidik chiqarishdan oldin jinsiy olatni kuzatishi mumkin. 5 yoshdan boshlab, o‘g‘il va qizlarda hojatni chiqargandan so‘ng,

ularni gigiyena sovunlari orqali yuvishni o‘rganish kerak bo‘ladi. Erogen nuqtalarni tirmash hususiyatga ega bo‘lgan kiyimlarni kiydirishdan tiyilish kerak.

3 yoshli bola “men o‘g‘ilman”, “men qizman” degan tushuncha shakllangan bo‘ladi. Ularda tananing ko‘plab organlarining maqsadlarini biladi. Shu davrda “men qayerdan kelganman” degan savollarga turli miflar, hayvonlar bilan bog‘liq hikoyalar orqali javob berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Sababi, tug‘ilish jarayonining haddan tashqari tafsilotlari bolalarning jinsiy tafsilotlarga qiziqishini uyg‘otishi mumkin. Bolalar tomonidan beriladagn bu turdag'i savollarga javob berishdan qochish kerak emas. Ularni bu masalaga qiziqishini ortirib yuboradi.

Bolani tug‘ilish haqidagi qiziqishlarini ota-onada tomonidan hurmat qilinishi muhim. Bolaga uning paydo bo‘lganligini o‘rgatish kerak, chunki onasi va otasi bir-birini yaxshi ko‘rishgan va uning paydo bo‘lishini juda xohlashganligi ta’kidlash kerak. Hayotning dastlabki yillardan boshlab o‘g‘il va qiz bolalarni tarbiyalashga tabaqlashtirilgan yondashuv zarur. O‘g‘il bolalar uchun o‘yinchoqlar, qizlar uchun o‘yinchoqlar sotib olinishi kerak. Oilada o‘g‘ilga nisbatan munosabatlarda ba’zida qattiq qo‘llik muhim hisoblanadi. Erta bolalikda shakllangan hususiyatlari erkaklik hayotidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishda yordam beradi. Yoshligidan o‘g‘il bolalarga qizlarni himoya qilish, uni hurmat qilish, joy berish va imkoniyati darajasida jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish odatlarin shakllantirish muhim hisoblanadi. Qizlarda o‘g‘il bolalarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish, ularni tushunuvchan, g‘amxorlik fazilati bilan rivojlanish muhim. Maktab yoshidagi qizlarda tashqi ko‘rinishga e’tibor berish ortadi. Kattalarga taqlid qilib, lablarini bo‘yashadi, qoshlarini bo‘yashadi va chiroyli bo‘lishni xohlashadi. Qizlarning go‘zallikka bo‘lgan erta munosabatini tanqid qilmaslik, balki ularga yaxshi tushuncha, o‘zlarini darajasidagi asosli tushunchalarni singdirish kerak. Jinsiy tarbiya estetik tarbiya bilan uzviy bog‘lanish kerak.

K.D.Ushinskiyning ta’kidlashicha, ba’zi ota-onalarning bolasini tashqi omildan va har qanday mas’uliyatdan himoya qilish, maksimal foyda va minimal qiyinchiliklarni asrash orqali ularda axloqiy buzilish, zerikish, yengil hayotga intilish, mustahkam irodani rivojlanmaslikka olib keladi [10].

Markaziy asab tizimi (MNS), o‘smalar, yendokrin bezlar kasalliklarida o‘g‘il bolalarning erta jinsiy rivojlanishi olib keladi. Bunday o‘g‘il bolalar hayotning dastlabki 2-3 yilda tez o‘sadi, 3-5 yil ichida ularning o‘sishi 7-8 yoshli bolaning o‘sishiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Mushaklar intensiv rivojlanadi va tana nomutanosiblik ko‘rinishiga keladi. Ovozning qo‘polligi ham muddatidan oldin paydo bo‘ladi. Erta jinsiy rivojlanish belgilari boshlanganda, ota-onalar yendokrinologga murojaat qilishlari kerak [2].

Ikkinchi bosqich 7-13 yosh. Ilgari do‘stona birga o‘ynagan bolalar ikki bo‘linadi: o‘g‘il va qiz bolalar. Bola o‘zi uchun jinsiy (ijtimoiy) rolni tanlaydi. Bola hayotining ushbu davrida ota-onalarning munosabatlari alohida rol o‘ynaydi, ular jinslar munosabatlarining namunasi sifatida qabul qiladilar. Onasi talabchan, hissiy jihatdan cheklangan va otasi mehribon, itoatkor bo‘lgan oilalarda qizlar ko‘pincha o‘tkir, erkak va o‘g‘il bolalar – ayolga hos xususiyatlar bilan o‘sadi. Jinsiy rivojlanish davrida o‘g‘il va qizlar o‘rtasida to‘g‘ri munosabatlarni o‘rnatish uchun kamtarlik, behribonlik kabi ahloqiy fazilatlarni shakllantirish muhim. Umumiy manfaatlarni shakllantirish uchun muzeylelar va teartlarga tashrif buyurish kerak. Boshlang‘ich maktab yoshida bolalarda hamdardlik, mehr hissi va qiziqishlar paydo bo‘ladi. Aynan shu davrda qiziqishlarni kitob o‘qishga, maqsadli o‘yinlarga o‘tkazishga harakat qilish kerak.

Uchinchi davr (qizlarda 12-14 yoshdan, o‘g‘il bolalarda 13-15 yoshdan) o‘smirlilik davri, balog‘at davri. Bu davrga kelib, o‘smirlar, ayniqsa qizlar, o‘z-o‘zini parvarish qilish bo‘yicha barcha zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak. Ona qizni hayz ko‘rish va undagi holatlarga tayyorlashi kerak. Ushbu davrda jinsiy tarbiya o‘spirin tanasida yuzaga keladigan funksional o‘zgarishlarni hisobga olish muhim. Bu davrda mustaqil bo‘lishni istagi, o‘z-o‘zini tasqidlashga intilish kuchayadi. O‘smirlarda balog‘atga etish jarayoni, jinsiy istakning namoyon bo‘lishi va yetuklik darajasi o‘rtasidagi nomutanosiblik yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuning uchun o‘smirning ota-onasi jinsiy rivojlanish va gigiyena ko‘nikmalarini haqida tasavvurga ega bo‘lishi juda muhimdir. Ushbu hodisaning fiziologiyasi, bu davrda kiyim-kechak, ovqatlanish va rejim haqida gapirib bering.

To‘rtinchi bosqich – o‘rta maktab o‘smirlari uchun jinsiy ta’lim yoshi (o‘g‘il bolalar va qizlar) va maktabni tugatganlar gender munosabatlari masalalarini axloqiy, ijtimoiy va gigiyenik jihatdan yoritish, jinsiy hayot gigiyenasi va fiziologiyasi, nikoh gigiyenasi asoslarini belgilashdan iborat bo‘lishi kerak. Bu davrda qizlarda boshqalarni xursand qilish, sevgi va muhabbat istagi bo‘ladi. O‘g‘il bolalar qizlarga

diqqat bilan qarashadi, ko‘proq yetuk ko‘rinishga harakat qilishadi va shuning uchun ko‘pincha turli odatlarni kattalardan (shu jumladan zararli: chekish, spirtli ichimliklar iste’mol qilish) qabul qilishadi. Yoshlar ba’zida qarama-qarshi jinsdagi tengdoshlari orasida o‘zlarini noqulay his qilishadi. Bu davrda ularga xushmuomalalik bilan yordam berish muhimdir. Agar yoshlarning hayoti qiziqarli tadbirlar bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, unda gender masalalariga haddan tashqari qiziqish odatda paydo bo‘lmaydi [4].

Xulosa. Jinsiy tarbiya siyosati va dasturlari yoshlarni rivojlantirishning zamonaviy nazariyalarini va atrof-muhit modellari bilan bog‘liq ilmiy asoslangan nazariyalar asosida ishlab chiqilishi kerak. Bundan tashqari o‘qituvchilar, ijtimoiy ishchilar, shifokorlar va ota-onalarga jinsiy tarbiya dasturlari samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni bilish muhim. Ushbu dastur orqali yoshlarni jinsiy yetilish, ulardagi jinsiy tarbiya va madaniyatni shakllanishini monitoring qilib borish qismi bo‘lishi kerak. Dasturni samaraliroq bo‘lishi uchun, yetarli darajada ma’lumotlar bazasini shakllantirish kerak. Ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarida jinsiy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan fundamental loyihalarni amalga oshirish kerak.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar

Rustamov Jakhongir /// Experiences of foreign countries in preventing early marriage and early birth. /// electronic journal of actual problems of modern science, education and training. february, 2023-2. ISSN 2181-9750, 109-115.

Abdiyeva G. I. Vozrastnye osobennosti yunosheskogo perioda // Arxivarius. 2021. T. 7, № 3. S. 31–33.

Dzitsoyev A. A. Nrvastvenno-polovoye vospitaniye detey v semye // Aktualnye problemy gumanitarnykh i yestestvennykh nauk. 2010. № 6. S. 221–225.

Zaxarova YE. I., Karabanova O. A., Starostina Yu. A., Dolgix A. G. Predstavleniya o budushchem roditelstve v podrostkovom i yunosheskom vozraste // Rossiyskiy psixologicheskiy журнал. 2019. № 2 (16). S.103–122. DOI 10.21702/rpj.2019.2.6.

Kon I. S. Ot Erosa k seksualnosti. Podgotovlennyy dlya pechati tekst doklada, prochitannogo na konferensii «Eros i Logos: fenomen seksualnosti v sovremennoy kulture». M. : Rossiyskiy institut kulturologii, 13–14 maya 2003. – 22 s.

Lazareva YE. A., Mudarova T. R. Period ranney yunosti kak predmet psixologicheskogo analiza // Natsionalnaya assotsiatsiya uchenykh. 2016. № 5. S. 102–104.

Masters U., Djonson V., Kolodni R. Osnovy seksologii / per. s angl.: N. Fominoy, Yu. Morozova i dr.; pod red. N. Fanchenko. M. : Mir, 1998. – 692 s.

Merzlyakova S. V., Bibarsova N. V. Dinamika predstavleniy o budushchem otsovstve u yunoshey s raznoy nrvastvennoy oriyentatsiyey lichnosti// Vestnik Yujno-Uralskogo gosudarstvennogo gumanitarno-pedagogicheskogo universiteta. 2021. № 5 (165). S. 230–244.

Ozerina A. A., Rodionov G. A. Nauchnyy obzor sovremennykh psixologo-pedagogicheskikh issledovaniy po probleme seksualnogo obrazovaniya // Psixologiya cheloveka v obrazovanii. 2020. T. 2, № 3. S. 288–293.

Rerke V. I., Glazkova T. V. Status psixologicheskoy intimnosti v yunosheskom vozraste: izuchenije i korreksiya // Pedagogicheskiy IMIDJ. 2019. T. 13, № 3 (44). S. 476–488. DOI 10.32343/2409-5052-2019-13-3-476-488.

Savvina O. V. Problema otvetstvennosti za zdorovye v sovremenном mire // Filosofiya i obychestvo. 2020. № 1 (94). S. 82–95.